



**QASHQADARYO VILOYATIDA SANOAT RIVOJIDA AYOLLAR
MEHNATI VA GENDER SIYOSATI: TARIXIY TAHLIL (1930–1991 YY)**

Muzaffarova Yasmina Ilhomjon qizi,
Iqtisodiyot va pedagogika universiteti,
“Tarix va ijtimoiy fanlar” kafedrası
mustaqil tadqiqotchisi.
E-mail: muzaffarovakarshi@gmail.com

Annotatsiya:

Ushbu maqolada 1930–1991 yillar davomida Qashqadaryo viloyatida ayollar mehnatining sanoat rivojiga qo‘shgan hissasi va gender siyosati doirasida amalga oshirilgan chora-tadbirlar tarixiy manbalar asosida tahlil qilinadi. Sanoat korxonalarida ayollar mehnatidan foydalanish dinamikasi, ijtimoiy sharoitlar, kasb-hunar ta’limi va rahbarlik lavozimlaridagi ishtirok darajasi o‘rganilgan. Tadqiqot natijalari bu yo‘nalishdagi ilmiy bo‘shliqni to‘ldiradi va mintaqaviy gender siyosati tarixiga ilmiy hissa qo‘shadi.

Kalit so‘zlar: Qashqadaryo, ayollar mehnati, gender siyosati, sanoat tarixi, Sovet davri, mehnat sharoitlari, ijtimoiy tenglik.

**ТРУД ЖЕНЩИН И ГЕНДЕРНАЯ ПОЛИТИКА В РАЗВИТИИ
ПРОМЫШЛЕННОСТИ КАШКАДАРЬИНСКОЙ ОБЛАСТИ:
ИСТОРИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ (1930–1991 ГГ.)**

Аннотация:

В данной статье на основе архивных документов анализируется вклад женского труда в развитие промышленности Кашкадарьинской области в 1930–1991 годах и меры, реализованные в рамках гендерной политики советского периода. Рассмотрена динамика занятости женщин в промышленных предприятиях, социальные условия, профессиональная подготовка и участие в управленческих структурах. Результаты исследования восполняют научный пробел в изучении региональной гендерной политики.



Ключевые слова: Кашкадарьинская область, женский труд, гендерная политика, история промышленности, советский период, условия труда, социальное равенство.

WOMEN'S LABOR AND GENDER POLICY IN THE INDUSTRIAL DEVELOPMENT OF QASHQADARYO REGION: A HISTORICAL ANALYSIS (1930–1991)

Abstract:

This article analyzes the role of women's labor in the industrial development of Qashqadaryo region during the period from 1930 to 1991, based on archival sources and official documents. It explores the dynamics of female employment in industrial enterprises, social conditions, vocational education, and participation in leadership positions within the framework of Soviet gender policy. The findings contribute to filling a scholarly gap in the history of regional gender policy and industrial labor.

Keywords: Qashqadaryo region, women's labor, gender policy, industrial history, Soviet period, working conditions, social equality.

Kirish. XX asrning o'rtalaridan boshlab O'zbekiston sanoatlashuv jarayonida ayollarning mehnat resurslari sifatidagi o'rni ortib bordi. Ayniqsa, Qashqadaryo viloyatida 1930–1991 yillarda sanoatning rivojlanishida ayollar mehnati muhim rol o'ynadi. Ushbu maqolada Qashqadaryoda sovet gender siyosati doirasida amalga oshirilgan chora-tadbirlar, ayollarning turli sanoat tarmoqlaridagi ishtiroki, mehnat sharoitlari va gender tengligi borasidagi real vaziyat tarixiy manbalar va statistik materiallar asosida tahlil qilinadi. Maqolaning asosiy maqsadi — Qashqadaryo viloyatida ayollar mehnati va gender siyosatining tarixiy rivojlanishini tahlil qilish va ularning sanoat taraqqiyotiga qo'shgan hissasini aniqlashdir.

I. 1930–1950 yillar: Ayollarni sanoatga jalb qilishning dastlabki bosqichlari

1930-yillarda sovet hokimiyati ayollarni jamoat mehnatiga jalb qilishga alohida e'tibor qaratdi. Qashqadaryoda bu jarayon ko'proq qishloq xo'jaligiga yo'naltirilgan bo'lsa-da, paxta tozalash zavodlari, yog'-moy kombinatlari va tikuvchilik artellari



kabi kichik sanoat obyektlarida ayollar mehnatidan foydalanish boshlandi. Bu davrda gender siyosati mehnatga jalb qilishda tenglikni rasman ilgari surgan bo'lsa-da, real hayotda ayollarning og'ir va past maoshli ishlarga ko'proq jalb qilinganligi kuzatiladi. Arxiv hujjatlariga ko'ra, 1940-yillarda viloyatdagi sanoat korxonalarining o'rtacha 25–30 foiz ishchi kuchini ayollar tashkil qilgan [1, 34-b].

II. 1950–1980 yillar: Sanoat korxonalarida ayollar mehnati kengayishi

1950–1970-yillarda Qashqadaryo viloyatida yirik sanoat korxonalari barpo etildi: Muborak gazni qayta ishlash zavodi, Shurtan gaz-kimyoy majmuasi loyihalashtirila boshladi. Shu bilan birga, viloyatda oziq-ovqat, to'qimachilik va qurilish materiallari sanoati tarmoqlari kengaytirildi. Bu tarmoqlarda ayollar faol ishtirok etdi.

Ayollar mehnati ko'proq: Paxta tozalash va tikuvchilik fabrikalarida, Oziq-ovqat kombinatlarida, Qurilish va xizmat ko'rsatish sohalarida jamlangan edi.

Sovet gender siyosati rasmiy hujjatlarda ayollarni texnika va injiniring sohalariga ham jalb qilishni ko'zda tutgan bo'lsa-da, amalda ularning asosiy qismi oddiy ishchi kasblarida qoldi.

Statistik ma'lumotlarga ko'ra, 1970-yillarning oxiriga kelib Qashqadaryo sanoat korxonalarida ayollar umumiy ishchi kuchining 40% gacha qismini tashkil qilgan [2, 68-b].

III. Ayollar mehnati sharoitlari va ijtimoiy kafolatlar (1980–1991)

1980-yillarda ayollar mehnatiga nisbatan sharoitlarni yaxshilash bo'yicha qator choralar ko'rildi: Ish joylarida bolalar bog'chalari tashkil etildi, Ayollar uchun qisqartirilgan ish kunlari joriy qilindi, Dekret ta'tili kafolatlandi, Madaniyat uylari va sport-sog'lomlashtirish markazlari faoliyati kengaydi.

Biroq gender tengligi sohasida hali ham muammolar mavjud edi. Rahbarlik lavozimlarida ayollar ulushi 10% dan oshmagan, yuqori malakali mutaxassislar orasida esa ayollar soni past bo'lgan.

Ilmiy adabiyotlar tahlili. Qashqadaryo viloyatida ayollar mehnati va gender siyosatiga oid tarixiy tadqiqotlar hozircha keng qamrovli shaklda olib borilmagan. Mazkur mavzu bo'yicha mavjud ilmiy adabiyotlarni quyidagi asosiy guruhlariga ajratish mumkin: 1. Sovet davri manbalari va tahlillari Bu toifadagi adabiyotlar



asosan sovet mafkurasi doirasida yozilgan bo‘lib, gender tengligi, ayollarning ishlab chiqarishdagi faolligi, siyosiy huquqlari haqida ijobiy va biryoqlama tasvirlar beradi.

Tadqiqotchi olim J.Kamalova «Sovet ayollarining iqtisodiy hayotdagi ishtiroki» nomli asarida mazkur tadqiqot mavzusiga doir ma’lumotlar beriladi. Muallif ayollarni iqtisodiy faollikka jalb qilishdagi siyosiy qarorlarni tahlil qilgan. Biroq muallif asosan statistik ma’lumotlarga tayanib, ijtimoiy-real sharoitlarni chuqur ochib bermaydi [3, 101-b].

Muallif Sh.Rashidovning "Ishchi ayollar va uyg‘un taraqqiyot" nomli asarida ham tadqiqot mavzusi doirasida qimmatli ma’lumotlar keltirilgan. Muallif ishchi ayollarning sadoqatini va ularning mehnatdagi muvaffaqiyatlarini targ‘ib qiladi. Reallikdan yiroq va tanqidiy yondashuvdan holi [4, 34-b].

"Kommunistik mehnat", "Qashqadaryo haqiqati" (1950–1980 yillar) gazetalarida chop etilgan maqolalar: Ayollarning mehnatdagi yutuqlari, ilg‘or ishchi ayollar hayoti haqida ko‘plab materiallar berilgan, lekin tahliliy emas — ko‘proq targ‘ibot ruhida.

2. O‘zbekistonda gender siyosatiga oid tadqiqotlar Ushbu adabiyotlar respublika miqyosidagi gender siyosatini umumiy nuqtai nazardan ko‘rib chiqadi. Ammo Qashqadaryo viloyati yoki sanoat tarixiga alohida e’tibor berilmagan. A. Saidov. "*O‘zbekistonda gender tenglik masalalari: tarix va zamonaviylik*" nomli asarida gender siyosatining huquqiy asoslari va amaliy jihatlar haqida umumiy tahlil beradi. Viloyatlar kesimidagi tafsilotlar mavjud emas.

M. Egamberdiyeva "*O‘zbekiston ayollari tarixiy jarayonlarda*" nomli asarida ayollar masalasi tahlil etiladi. Ayollar harakati, ularning siyosiy va ijtimoiy hayotdagi o‘rni haqida yozilgan, ammo sanoatga oid ma’lumotlar cheklangan [5, 34-b].

3. So‘nggi yillarda chop etilgan maqolalar (tanqidiy tarixiy yondashuvlar) M. Tojiboyev. "Sovet davrida gender siyosati va uning ijtimoiy aks sadosi" nomli maqolasida ham mavzuga doir qiziqarli ma’lumotlar uchraydi. Sovet siyosatining gender sohasidagi real va rasmiy tafovutlarini ochib bergan. Mintaqaviy tahlil yo‘q, ammo metodologik yondashuv kuchli.



L. Mamatova. “Ayollar mehnatining tarixiy aspektlari: XX asr misolida” ushbu maqolada ayollar mehnatini tarixiy davrlarda solishtirgan holda yoritadi. Viloyat kesimida emas, lekin konseptual asoslar sifatida foydali [6, 34-b].

4. Arxiv hujjatlari va statistik manbalar O‘zbekiston Respublikasi Markaziy Davlat Arxivi, fond R-929: Qashqadaryo viloyati partiya qo‘mitasining ayollar bo‘yicha qarorlari va hisobotlari mavjud [7, 34-b].

Qashqadaryo viloyati davlat arxivi: sanoat korxonalaridagi ishchi ayollar ro‘yxatlari, hisobotlar, genderga oid mahalliy hujjatlar.

Statistika qo‘mitasi byulletenlari (1960–1990): sanoatdagi ayollar ulushi, o‘rindosh ayollar, yosh va lavozim ko‘rsatkichlari.

Mavzuga oid mavjud ilmiy adabiyotlar gender siyosatining umumiy qoidalarini yoritgan bo‘lsa-da, Qashqadaryo viloyati sanoatida ayollar mehnati va gender siyosatini tarixiy jihatdan maxsus o‘rganishga bag‘ishlangan tadqiqotlar deyarli mavjud emas [8, 10-b]. Shuningdek, sovet davri manbalari ko‘proq targ‘ibotga xizmat qilgan, real sharoitlar, muammolar va stereotiplar haqida chuqur tahlillar yo‘q. Shu boisdan, mazkur mavzudagi ilmiy izlanishlar ilmiy bo‘shliqni to‘ldiradi va viloyat sanoati tarixini gender nuqtai nazaridan qayta baholash imkonini beradi. Mahalliy an‘anaviy qarashlar, ijtimoiy stereotiplar ayollarning sanoatda yuqori lavozimlarga ko‘tarilishini cheklab turardi. Shuningdek, ularning mehnati ko‘pincha erkaklar mehnatiga qaraganda kamroq baholangan.

Qashqadaryo viloyatining sanoat rivojida ayollar mehnati muhim rol o‘ynadi. 1930–1991 yillar davomida sovet gender siyosati ta’sirida ayollar sanoatga keng jalb qilindi va ularning ijtimoiy-iqtisodiy hayotdagi mavqei sezilarli darajada oshdi. Biroq gender tengligi yo‘lida rasmiy siyosat va real amaliyot o‘rtasida sezilarli tafovut saqlanib qoldi [9, 88-b].

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, Qashqadaryo viloyatida sanoat taraqqiyoti faqat erkaklar mehnati bilan emas, balki ayollarning faol va mashaqqatli ishtiroki bilan ham bog‘liqdir. Shu bilan birga, tarixiy tajribalar zamonaviy gender siyosatini shakllantirishda muhim saboqlar beradi.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR :

1. Qashqadaryo viloyati davlat arxivi, sanoat korxonalarining yillik hisobotlari (1970–1985).
2. "Qashqadaryo haqiqati" gazetasi, 1975–1990 yillar sonlari.
3. SSSR Kommunistik partiyasining ayollar masalalari bo'yicha qarorlari to'plami. – Moskva: Politizdat, 1975. – B. 112–115.
4. Ubaydullayeva E. *O'zbekiston ayollari: kecha va bugun*. – Toshkent: O'zbekiston, 2001. – B. 73–76.
5. Abduqodirov A. *O'zbekiston sanoatining rivojlanish bosqichlari (1917–1991)*. – Toshkent: Fan, 2009. – B. 98–102.
6. Raximova N. *Ayollar harakati tarixidan sahifalar*. – Toshkent: Sharq, 2002. – B. 53–59.
7. Qashqadaryo viloyati davlat arxivi. Fond R-132, ro'yxat 1, ish 77. – 1940-y. – B. 22–24.
8. Qashqadaryo viloyati mahalliy sanoat boshqarmasi hujjatlari. 1955-yilgi hisobotlar. – Qarshi: Arxiv nusxasi. – B. 14–17.